

Madaniy meros agentligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma Madaniy meros agentligi markaziy apparati, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari (bundan buyon matnda Agentlik tizimi deb yuritiladi) xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va qo‘llanmalarni belgilab beradi.

2. Ushbu Yo‘riqnoma korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va Agentlikning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Agentlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish (bundan buyon matnda o‘qitish deb yuritiladi) dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

2-bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari

4. Agentlik tizimi xodimlarini o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

xolislik va ilmiylik – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablari, xalqaro standartlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

amaliy jihatdan qulaylik – Agentlik tizimi xodimlarini o‘qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash imkoniyatini nazorat qilinishini o‘z ichiga olishi lozim;

ketma-ketlilik va tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallari, shuningdek xodimlarni o‘qitish tartibi izchil va tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. O‘qitish umumiy tushunchalar va voqeiklardan juz’iyilariga,

oddiydan murakkabga, boshlang'ichdan mukammalga va hokazo o'tish asosida amalga oshiriladi;

hammaboplik – o'qitish Agentlik tizimi xodimlarining joriy bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlar uchun tushunarli bo'lgan o'quv materiallarini shakllantirish;

differensialangan yondashuv – Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi o'qitish aniq funksiyalar va tartib-tamoyillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo'shimcha ravishda maxsus o'qitiladi;

o'qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish – o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek xodimlar tomonidan bilimlar o'zlashtirilganini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi.

3-bob. O'qitishning ustuvor vazifalari

5. O'qitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarini shakllantirishda Agentlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish uchun mas'ul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Agentlikning funksiya va tartib-tamoyillarida paydo bo'lish shakllari va o'ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlarini to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan belgilangan korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning axloqiy qadriyatlarini va Agentlikning boshqa ichki hujjatlariga qat'iy va so'zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

xodimlarni Agentlik tizimida amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-tamoyillari bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor qoidalari buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish.

4-bob. O'qitishni ishlab chiqish va o'tkazishga mas'ul shaxslar

6. Agentlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitishni tashkil qiladi, shuningdek

tashkil qilingan o'qitish jarayonlarida xodimlarning ishtirok etishini monitoring va nazorat qiladi.

7. Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlarni o'qitish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o'quv materiallarni ishlab chiqadi, o'qitish o'tkazilishini muvofiqlashtiradi.

8. Tegishli tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida o'quv materiallarini tayyorlash hamda o'qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslar jalb qilinishi mumkin.

5-bob. O'qitish turlari va shakllari

9. O'qitish quyidagi o'quv dasturlarini ko'zda tutishi lozim:
barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish;
korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish.

10. Korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish barcha xodimlar uchun majburiy hisoblanadi.

11. Barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish amaliy yo'naltirilgan bo'lishi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchilik hujjatlari, Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan o'rnatilgan ta'qiqlar, cheklovlar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo'yilgan talablar, xodimlarning korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotiga doir bilimlar;

olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalari, jumladan Agentlikning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Agentlikda o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qo'llay bilish.

Korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yo'riqnomaga 1-ilovada keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi.

12. Xodimlarni umumiy korrupsiyaga qarshi o'qitish xulq-atvor qoidalari natijalari bo'yicha o'rganilgan material qanchalik o'zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

13. Xodimlar savollarning kamida 80 foiziga to'g'ri javob bergan taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80 foizidan kamiga to'g'ri javob bergan bo'lsa, u takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida topshirishi mumkin.

14. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishdan mustaqil (qo'shimcha) ravishda o'tkaziladi.

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim:

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-tamoyillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-tamoyillardagi korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-tamoyillarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'shimcha talab va tartib-tamoyillarni o'z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o'qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (tashkilotlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik hujjatlaridagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg'or xalqaro metodikalarni o'rganishni o'z ichiga olishi lozim.

19. Ushbu Yo'riqnomaning 18-bandida ko'rsatib o'tilgan malaka oshirish va treninglardan o'tish yiliga kamida 10 (o'n) soatni o'z ichiga olishi lozim.

6-bob. O'qitish muddatlari va davriyligi

20. O'qitish qonunchilik hujjatlari va Agentlikning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o'qitish, uchinchi shaxslar bilan qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

21. Xodimlar korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o'qitiladi.

22. Xodimlar quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yiliga bir martadan ko'p o'qitiladi:

xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kirsa;

korrupsiyaviy harakatlar bilan bog'liq holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funksiya/tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi ortganda;

Agentlik direktori (tizim tashkilotlari rahbarlari) qaroriga muvofiq.

23. Agentlik tizimiga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o'tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o'tgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida korrupsiyaga qarshi xulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitilishi shart.

O'quv sanasini belgilashda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishning tasdiqlangan yillik jadvali va mazkur bobning 22-23-bandlarida ko'zda tutilgan o'qitish muddatlari va davriyligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish va xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish barcha xodimlar uchun Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi tomonidan yiliga bir martadan kam bo'lmagan davriylikda belgilanadi.

24. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgani bilan bog'liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish sohasida o'qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

25. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi har yili o'qitish jadvalini tuzadi va 31-dekabrgacha uni Agentlik direktoriga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

O'qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi O'qitish muddatlari hisobga olinadi.

O'qitish jadvalida albatta o'qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o'qitish tayinlangan lavozimlar ko'rsatiladi.

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limining mas'ul xodimlari o'qitish boshlanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda o'qitish imkoniyati bo'lmasa (masalan yuqori

mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejalashtirilgan ta'til singari asosli sabablar), xodim o'qish boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay o'qishni boshqa sanaga ko'chirish yuzasidan Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limini ogohlantirib qo'yishi lozim.

7-bob. O'qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

26. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitilishiga doir ma'lumotlarni yig'ib boradi va ularni har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga taqdim etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o'quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallari korrektirovka qilinishini (zarurat tug'ilganda) ta'minlaydi.

27. Xodim unga tayinlangan o'quv yoki uning natijalari bo'yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o'tmasa, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi ushbu xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

28. O'qitish jadvali, yo'qlama varaqalari, test natijalari, xodim o'qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limida saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

29. Ushbu Yo'riqnoma qoidalari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

30. Agentlik tizmi xodimi egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqei va boshqa omillardan qat'iy nazar mazkur Yo'riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Madaniy meros agentligi tizimi
xodimlarini korrupsiyaga qarshi
kurashish sohasida o‘qitilishini
tashkil qilish bo‘yicha
yo‘riqnomaga
ilova

**Agentlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish
bo‘yicha umumiy o‘qitishning
MAVZULARI**

Mavzu	Komponentlar
Korrupsiyaning tabiati	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot.
Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Agentlikdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora-tadbirlar sharhi; Agentlikdagi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyat va vakolatlari; Ma‘muriy tartib-tamoyillar va reglamentlardan foydalanish. Ma‘muriy to‘siq va byurokratizmni bartaraf etish; Korrupsiyaviy harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar; Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo‘riqnomaga, xabarlar ko‘rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar	Agentlikdai xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari; Nazorat-ruxsat berish funksiyalari va tartib-tamoyillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Sovg‘alar va ishbilarmonlik mehmondo‘stligi belgilari berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqalar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xodimlarni Agentlikga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi

Mavzu	Komponentlar
	<p>korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xaridlarni amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Binolarni ijaraga berish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; O‘zaro hamkorlik va tasarrufiy Agentliklar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Tanlovlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli hujjat turlari ekspertizasini o‘tkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Agentlik faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>
<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik</p>	<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik; Korrupsiyaviy xarakatlar uchun jinoiy javobgarlik; O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari bo‘yicha sud amaliyoti sharhi.</p>
<p>Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati roli</p>	<p>Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida; Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish; Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish; Fuqarolik jamiyati institutlarining Agentlik bilan o‘zaro hamkorligi.</p>